

**Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni
plastik kartaga o'tkazish haqida
SHARTNOMA**

20__ yil “__” _____

№ _____

_____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining _____
filiali (keyingi o'rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va
Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va yuridik shaxs _____

(keyingi o'rinlarda – Mijoz), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Mazkur Shartnoma Mijoz xodimlariga plastik karta maxsus hisobvarag'i ochish va ish haqi hamda unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun plastik karta berish bo'yicha Bank bilan Mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, shuningdek plastik kartaga xizmat ko'rsatish shartlarini tartibga soladi.

2-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) plastik kartalar bo'yicha amalga oshirilayotgan pul o'tkazmalarini tekshirish;
- b) Mijoz xodimlarining plastik kartasini, undan foydalanishda bir necha bor qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilganligi sababli, olib qo'yish;
- v) uch bank kuni davomida tegishli hujjatlar taqdim qilinmaganda to'lovni qaytarib yuborish.

3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- a) xodimlarning plastik karta maxsus hisobvarag'iga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida o'tkazilishini talab etish;
- b) xodimlarning plastik karta maxsus hisobvarag'iga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar to'g'ri o'tkazilayotganligini tekshirish.

4. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- a) mazkur shartnoma va Mijoz xodimlarining plastik karta olish uchun bergan individual arizasi asosida ularga plastik karta maxsus hisobvarag'i ochish va plastik kartani berish;
- b) ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni Mijozning to'lov topshiriqnomasi va to'lov vedomosti asosida uch bank kuni davomida Mijoz xodimlarining plastik karta maxsus hisobvarag'iga kiritish;
- v) Mijoz xodimlariga ularning topshirig'i bo'yicha plastik karta maxsus hisobvarag'idan boshqa banklardagi hisobvaraqa pul o'tkazish;
- g) Mijoz xodimidan plastik kartaning yo'qotilganligi to'g'risida ariza olingandan so'ng 48 soat ichida ushbu plastik karta bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishini to'xtatish;
- d) Mijoz xodimlari plastik karta maxsus hisobvarag'iga oid operatsiyalarni sir saqlash.

5. Mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- a) Bankda o'rnatilgan ish rejimi, to'lov hujjatini rasmiylashtirishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioya qilish;
- b) boshqa bankka o'tayotganda yoki faoliyati to'xtatilganda xodimlarining plastik kartasini, belgilangan tartibda, Bankka qaytarib berish.

3-§. Tomonlarning javobgarligi

6. Bank, Mijoz tomonidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish amalga oshirilmaganda yoki ular o'z vaqtida o'tkazilmaganda, plastik karta egasi – Mijoz xodimi oldida

javobgar hisoblanmaydi.

7. Tomonlar ushbu shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarining bajarilishini buzganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bo'yicha javobgar hisoblanadi.

4-§. Shartnomaning amal qilish muddati

8. Mazkur shartnoma 1 (bir) yil muddatga tuzildi, agar uning muddati tugashidan eng kamida bir oy oldin tomonlardan hech kim ushbu shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma tarzda xabar bermagan holda, uning muddati keyingi davrga uzaytirilgan hisoblanadi.

9. Mazkur shartnoma uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

10. Shartnoma bekor qilinganda tomonlar bir oy ichida barcha o'zaro hisob-kitoblarni to'liq amalga oshirishi shart.

5-§. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

11. Bank ushbu shartnoma shartlariga, Mijozni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda, o'zgartirish kiritishni taklif qilishi mumkin. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga oid bitim uni har ikki tomon imzolangandan so'ng kuchga kiradi.

6-§. Shartnomani bekor qilish

12. Tomonlar ushbu shartnomani, bir-birlariga bir oy oldin yozma xabar bergan holda, bekor qilishi mumkin.

13. Shartnoma Mijozning tashabbusiga ko'ra bekor qilinganda, u ushbu shartnoma bekor qilingunga qadar va bekor qilingandan keyin, agar plastik karta Bankka qaytarilmagan bo'lsa, o'tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha to'liq javobgar hisoblanadi.

14. Shartnoma bekor qilinganda Bank Mijozning plastik karta maxsus hisobvarag'ini yopadi, undagi qoldiq summa Mijozning arizasiga ko'ra naqd pulda beriladi yoki ko'rsatilgan hisobvaraqa o'tkaziladi.

7-§. Nizolarni hal qilish

15. Barcha kelishmovchilik va nizolarni tomonlar muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibida hal qilinadi.

8-§. Yakuniy qoidalar

16. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nus'hada tuzildi, uning bir nus'hasi Bankda, ikkinchi nus'hasi Mijozda saqlanadi.

17. Shartnomaga muvofiq tarzda yoki unga bog'liq holda yuborilgan barcha xat va xabarnomalar yozma tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart va ular tomonlarning quyida ko'rsatilgan manzillari bo'yicha buyurtma xat orqali yuborilgan yoki shaxsan yetkazilgan hamda ularni olganlik to'g'risida tasdiqnoma mavjud bo'lsa, ular belgilangan tartibda taqdim etilgan hisoblanadi.

18. Mazkur shartnoma bilan belgilanmagan barcha hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda ish olib boradi.

7-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank:

Manzili: _____

Tel.: _____ Faks: _____

Bank kodi: _____

Bank hisobvarag'i: _____

STIR: _____

Boshqaruvchi: _____

Muhr o'ri

Mijoz:

Manzili: _____

Tel.: _____ Faks: _____

Banki _____

So'm hisobvarag'i _____

Bank kodi: _____

STIR: _____

Rahbar: _____

Muhr o'ri